

Tokent shahar Chilonzor tumani
“Yagona darcha” markazining
20__ yil «__»__da
____-sonli qarori bilan
Davlat ro'yxatiga olingan

TASDIQLAYMAN
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2023 - yil «14» 04 dagi
92 - sonli buyrug'iga



ILOVA

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DAVLAT MUASSASASI**

USTAVI

Toshkent – 2023

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DAVLAT MUASSASASI USTAVI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4732-sonli, 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida»gi PF-5789-sonli, 2019-yil 6-sentyabrdagi «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5812-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi», 2012-yil 28-maydagi «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1761-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentyabrdagi «Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 278-sonli, 2017-yil 27-fevraldagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 103-sonli, 2019 yil 23 sentyabrdagi «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 797-sonli, 2020-yil 7-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 466-sonli, 2021 yil 26 fevraldagi «Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 106-sonli qarorlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi (bundan keyingi o'rinlarda *markaz* deb yuritiladi) faoliyatini belgilaydi.

2. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon,

qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda **vazirlik** deb yuritiladi), Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi (keyingi o'rinlarda **Bosh ilmiy-metodik markaz** deb yuritiladi), Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o'rinlarda **institut** deb yuritiladi) hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (keyingi o'rinlarda **universitet** deb yuritiladi) qaror va buyruqlari, shuningdek mazkur Ustav asosida olib boradi.

3. Markaz mustaqil yuridik shaxs hisoblanib O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, o'z emblemasi, shtampi, mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasida hisob raqamlariga ega bo'ladi.

4. Markaz vazirlikning oliy ta'lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun davlat byudjetidan yillik parametrlari doirasida ajratilgan mablag'lar, xalqaro tashkilotlarning xayriya mablag'lari, grantlari hamda xo'jalik shartnomalaridan, pullik xizmatlardan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

5. Markaz vazirlikka, vazirlik huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazga hamda universitetga bo'ysunadi va o'z faoliyatini o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Markazning pochta manzili: 100003, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

7. Markazning rasmiy nomi:

davlat tilida: "Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot, biznes, boshqaruv sohasi mutaxassislarini va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi", qisqa nomi - Markaz;

rus tilida: "Центр переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров и специалистов сферы экономики, бизнеса, управления при Ташкентском государственном экономическом университете", qisqa nomi - Центр;

ingliz tilida: «The Center for Retraining and Professionally Developing of Academic Staff and Specialists in the Field of Economics, Business, Management under the Tashkent State University of Economics», qisqa nomi - The center.

II. Markazning maqsadi va vazifalari

8. Markazning **maqsadi**:

tegishli yo'nalishlar bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

iqtisodiyot, biznes va boshqaruv sohasi xodimlari, nodavlat oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini shartnoma asosida qisqa muddatli malakasini oshirish hamda maslahatlar berish;

o'qitish sifatiga quyiladigan talablarni oshirishni va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda shartnoma asosida sohaga doir pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash;

rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari bilan tajribalar almashish.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv jarayonlarida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tarkibi va o'quv-yordamchi xodimlar malakasini oshirish dasturlarini uzluksiz takomillashtirish, muhandis-texnik va o'quv-yordamchi xodimlarining malakasini oshirish, o'quv jarayonining sifatini yaxshilash, ularning bilimi va kasbiy mahoratini aniq yo'nalishlar (mutaxassisliklar) bo'yicha iqtisodiyot sohalarining tezkor rivojlanib borishiga uyg'unlashtirish, tarmoqdagi innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, pedagog kadrlarga tegishli sohalar bo'yicha yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga ko'maklashishdan iborat.

9. Markazning **asosiy vazifalari:**

qayta tayyorlash va malaka oshirishning tegishli yo'nalishlari bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini, qisqa muddatli maxsus kurslarni hamda seminar treninglarni tashkil etish;

iqtisodiyot, biznes va boshqaruv sohasi xodimlari, nodavlat oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini yangilab borish maqsadida shartnoma asosida, buyurtmachi talablaridan kelib chiqqan holda malaka oshirish kurslari, maxsus kurslar, maslahatlar berish va hududlarda sayyor seminarlar tashkil etish;

kurslar doirasida sifat jihatidan yuqori tashkiliy va kasbiy darajada mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnika bazasini tashkil etish;

masofadan o'qitish usullari asosida oliy ta'lim pedagog kadrlari uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mashg'ulotlar o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasalarining etakchi pedagog kadrlarini va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengash a'zolarini, shuningdek shartnoma asosida mamlakatning boshqa oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali professor-o'qituvchilarni va xorijiy mutaxassislarni, o'quv-uslubiy xodimlar va amaliyotchi mutaxassislarni keng jalb etishni ta'minlash;

qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantiradi, qayta tayyorlash jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik,

multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishni va ularni joriy etishni tashkil etish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qiyotganlar uchun pedagogik amaliyot hamda ular tomonidan ochiq lektsiyalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni, keyinchalik muhokama qilgan va tanqidiy tahlil qilgan holda, tashkil etish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida kurslarning boshqa joylardan kelgan tinglovchilariga oliy ta'lim muassasalari yotoqxonalaridan yashash joylari berish choralarini ko'rish;

ma'lumotlarning xolisligini ta'minlagan holda Bosh ilmiy-metodik markazning yagona elektron tizimining tegishli axborot resurslarini shakllantirish hamda tizimga joylashtirish;

ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonini tashkil etishda ishlab chiqarish bilan samarali o'zaro hamkorligini ta'minlash;

tinglovchilarning vazirliklar, qo'mitalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarga tashriflarini ta'minlash orqali ko'chma mashg'ulotlarni tashkil etish;

markazda, shu jumladan ishlab chiqarish, tadqiqot, loyihalash-qidiruv tuzilmalarining moddiy-texnikaviy bazasidan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv va moddiy-texnikaviy bazani yaratish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarning istiqbolda rivojlanishini hisobga oluvchi dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

pedagog kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishini ta'minlash hamda ularning monitoring olib borish;

pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish;

pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish;

yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda ~~rahbar~~ va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish, ularning faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash;

pedagog kadrlarda zamonaviy axborot texnologiyalar muhitini, jahon axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

pedagog kadrlarning chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyat samaradorligini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini yaratish;

markazda xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirishni tashkil etish va rivojlantirish.

III. Markazning huquqlari va majburiyatlari

10. Markazning huquqlari:

O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy mamlakatlarda o'z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'z vakolati doirasida hamkorlik shartnomalarini tuzish;

pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qisqa muddatli malaka oshirish, qayta tayyorlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy-metodik seminarlar tashkil etish;

ta'lim tizimini takomillashtirish borasida turli xalqaro va respublika miqyosida tashkil etiladigan ko'rgazma, konferentsiya, seminar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

o'z missiyasini amalga oshirish maqsadida vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari, xorijiy davlatlar etakchi universitetlari va ilmiy muassasalari, turli nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorliklarni yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarini tashkil etish;

iqtisodiyot, biznes va boshqaruv sohalari kadrlarini xo'jalik shartnomalari asosida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularga iqtisodiyotning dolzarb masalalari bo'yicha maslahatlar berish, sayyor seminarlarni tashkil etish, boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatish;

davlat va xorijiy grantlarda o'z loyihalari bilan ishtirok etish;

Markaz xodimlari va pedagog kadrlarini xorijiy davlatlar etakchi universitetlari va ilmiy muassasalariga tashrifi tashkil etish maqsadida chet el xizmat safarlariga yuborish;

Markazda xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirishni tashkil etish va taklif qilish;

Markaz xodimlari va pedagog kadrlariga amaldagi qonunchilikga muvofiq ustamalar belgilash.

11. Markazning majburiyatlari:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish;
markaz oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish davlat byudjeti mablag'lari doirasida amalga oshirish;

oliy va professional ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim jarayoni sifatini va natijalarini tahlil qilish va monitoringini olib borish;

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim tizimiga joriy etish;

malaka oshirish jarayonida o'qitishning masofadan o'qitish usullarini (Blended learning, on-line, off-line, vebinar) joriy etish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha respublika va xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarini ommalashtirib borish;

ilg'or xalqaro tajribani ommalashtirish va o'rganib borish barobarida xorijiy davlatlarning etakchi universitetlari va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

12. Markaz quyidagi yo'nalishlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi:

1. Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
2. Ekonometrika
3. Mintaqaviy iqtisodiyot
4. Iqtisodiy xavfsizlik
5. Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
6. Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
7. Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)
8. Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha)
9. Moliya va moliyaviy texnologiyalar
10. Bank ishi va auditi
11. Sug'urta ishi
12. Byudjet nazorati va g'aznachiligi
13. Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
14. Birja ishi
15. Investitsion loyihalarga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish
16. Islom iqtisodiyoti va moliyasi
17. Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
18. Biznesni boshqarish (tarmoqlar bo'yicha)
19. Inson resurslarini boshqarish
20. Biznes-tahlil
21. Korporativ boshqaruv,
22. Logistika (yo'nalishlar bo'yicha)
23. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

24. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha)

25. Xalqaro iqtisodiyot va menejment (mintaqalar va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

26. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari

27. Moliya sohasida boshqaruv

28. Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

29. Savdo ishi (turlari bo'yicha)

30. Baholash ishi

31. Agrobiznes va investitsion faoliyat

32. Elektron tijorat

33. Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

34. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish.

Shuningdek, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi:

1. Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

2. Soliqlar va soliqqa tortish

3. Bojxona ishi (Faoliyat turlari bo'yicha)

4. Moliya va moliyaviy texnologiyalar

5. Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

6. Marketing

7. Moliya

8. Bank ishi

9. Bank ishi va auditi

10. Sug'urta ishi

11. Byudjet nazorati va g'aznachiligi

12. Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

13. Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

14. Inson resurslarini boshqarish

15. Logistika (yo'nalishlar bo'yicha)

16. Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

17. Savdo ishi (turlari bo'yicha)

18. Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

19. Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish

20. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish

Oliy va professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishlari Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori hamda professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatoriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilib boriladi.

IV. O'quv va ilmiy-metodik ishlarning sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari

13. Markaz direktorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs **tinglovchi** hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlaridan shakllantiriladigan kurslarga tinglovchilarni qabul qilish tasdiqlangan reja-jadval va jo'natuvchi tomonlarning buyrug'i asosida tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to'g'risidagi buyruq kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun mobaynida rasmiylashtiriladi.

Ishdan ajralmagan holda masofadan o'qitish usullari asosida tashkil etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish jarayoni boshlangandan keyin uch kun mobaynida belgilangan topshiriqlarni bajarmagan yoki kurslarning to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladigan davrida o'qish boshlangandan keyin uch kun mobaynida tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlariga etib kelmagan tinglovchilar, etib kelmaslikning sabablaridan qat'iy nazar kurslarga qo'yilmaydi.

Markaz tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o'z vaqtida kelmaganligining barcha holatlari to'g'risida tegishli choralar ko'rish uchun jo'natuvchi tomonga va vazirlikka xabar beradi.

14. Markaz tinglovchilari quyidagi **huquqlarga** ega:

fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

universitet axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olish;

auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan (internet, Wi-Fi) o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;

ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda markaz rahbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;

markaz miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;

sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanish.

15. Markaz tinglovchilari quyidagi **majburiyatlarga** ega:

o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi;

markazda mavjud qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv rejasi va ta'lim dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash;

markaz tomonidan tinglovchilarga yuklatilgan qonuniy topshiriqlarini ijro etish;

markaz va universitetning Ustavi, Ichki mehnat tartibi qoidolari, Odob-axloq qoidolari va tinglovchilar turar joylari qoidalariga qat'iy rioya etish.

16. Ushbu Ustav va markaz hamda universitetning Ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda tinglovchiga nisbatan quyidagi intizomiy choralar ko'riladi:

ogohlantirish hamda tinglovchilar safidan chetlatish.

Quyidagi hollarda malaka oshirishni o'tayotgan tinglovchi malaka oshirishdan chetlashtiriladi:

o'z xohishiga binoan;

o'quv intizomini va malaka oshirish ichki tartib-qoidalarini muntazam buzganligi uchun;

o'quv mashg'ulotlarini uzrli sabablarsiz 18 akademik soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

ta'lim dasturlarini o'zlashtirmaganligi uchun;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

sud hukmi asosida ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

vafot etganligi sababli.

Intizomiy choralar ko'rilgan tinglovchi o'ziga qo'llanilgan choraning qonuniyligi va adolatligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda norozilik bildirishi mumkin.

17. Markaz direktorining buyrug'i bilan ishga qabul qilingan shaxs markaz xodimi hisoblanadi.

Markazda bo'lim boshlig'i va xodimlari, pedagog kadrlar, muhandislik-texnik, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlar lavozimlari mavjud.

18. Markaz xodimlari va pedagog kadrlari quyidagi huquqlarga ega:

markaz faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, ilmiy va o'quv jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

qonunchilikda belgilangan tartibda lavozimlarni egallash, tanlovlarda qatnashish;

o'zlari ishlayotgan lavozimlardan tashqari boshqa ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);

nazariy bilimlar, amaliy tajribani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

grantlar, ilmiy loyihalar ishlarini olib borish;

belgilangan tartibda Markazning kengashiga saylash va saylanish;

markaz faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama etish va hal qilishda ishtirok etish;

markazning va universitetning Axborot-resurs markazlari, axborot jamg'armasi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan belgilangan tartibda foydalanish;

ma'muriyatning buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

19. Markaz xodimlari va pedagog kadrlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, mehnat intizomi, mazkur Ustav va Ichki mehnat tartibi qoidalari hamda Odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish;

o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

o'zgaralar bilan xushfe'l munosabatda bo'lish;

ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy, o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) o'quv abadiyotlar tayyorlash, ilmiy maqolalar yozish, ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, mehnat intizomi, mazkur Ustav va Ichki mehnat tartibi qoidalariga qat'iy rioya qilish;

v) o'z malakasini muntazam ravishda oshirish;

chet tili va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirib borish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish;

respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalarga rioya qilish;

markaz va universitet mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;

markaz va universitetga bevosita yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

markazning jamoatchilik ishlarida faol qatnashish;

ilmiy va pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash;

o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;

darslarni yuqori saviyada o'tish;

o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish;

fan yo'nalishiga oid yangi manbalarni topish va ular bilan tinglovchilarni tanishtirib borish;

har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishi o'quv dasturini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlash;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash;

ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish;

nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarini, ilmiy-tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish.

20. Markazning barcha xodimlari Markazning ichki mehnat tartib-intizomiga, nizom talablariga va lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishlari shart.

21. Markaz xodimlari va pedagog kadrlari chet el xizmat safarlari amaldagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, vazirlikning tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

22. Ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnik, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari markaz Ustavi, Ichki mehnat tartibi qoidalar va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

V. O'quv va ilmiy-metodik ishlar

23. Markazda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi 11-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining davlat standartiga muvofiq tegishli yo'nalishlar bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish davlat ta'lim talablari asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishlari vazirlik bilan kelishilgan holda belgilanadi.

24. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim dasturlari doirasida ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 24-maydagi 188-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga quyiladigan davlat ta'lim talablari" qo'llaniladi.

Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim dasturlari doirasida ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 23-dekabrdagi 50-2012-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga quyiladigan davlat ta'lim talablari" qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish, markaz tomonidan ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan o'quv rejalar va o'quv dasturlari, tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

25. O'quv mashg'ulotlarining nazariy, amaliy va seminar, ko'chma, tajriba almashish, pedagogik amaliyot va boshqa shakllaridan foydalaniladi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari asosida masofaviy kurslar tashkil etiladi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik tanaffussiz juft akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

26. Tinglovchilarning o'quv jarayoni quyidagi muddatlarda olib boriladi:

oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish - qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish

tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda, o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish Vazirlik tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasini asosida ishlab chiqilgan kamida 144 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli malaka oshirish kadrlar buyurtmachisi bilan kelishilgan holda 72 soat, 36 soat, 18 soat hajmdagi dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash vakolatli organ tomonidan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. Qayta tayyorlashning qancha davom etishi ilgari olingan oliy ta'lim darajasiga, qayta tayyorlashning turi va ko'p mehnat talab qilishiga, o'qitish shakllariga bog'liq bo'ladi va asosiy ishdan ajralgan holda kamida 16 hafta (576 soat) bo'lishi kerak.

Auditoriyada o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

27. Tinglovchilarning asosiy ish faoliyatidan ajralmagan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv jarayoni muddati vazirlik tomonidan belgilanadi.

28. Markaz tinglovchilari (oliy ta'lim muassasalaridan kelgan pedagog kadrlari)ga o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

Markaz tinglovchilari (professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari)ga o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Markazning qisqa muddatli kurs tinglovchilariga o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan va davlat xizmatlari agentligidan ro'yxatdan o'tgan sertifikat beriladi.

Pedagogik kadrlarni qayta tayyorlashda o'qigan tinglovchiga o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat namunasidagi diplom beriladi.

29. Markazda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik ishlar amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

fan, texnika va texnologik taraqqiyotning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag'lari;

shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan xorijiy tashkilotlar mablag'lari.

VI. Markazning tarkibi

30. Markazning tashkiliy tuzilmasi quyidagi ma'muriy va boshqaruv bo'limlardan iborat:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim jarayonini tashkil etish va sifatini baholash bo'limi;

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim dasturlari va ilg'or tajribani joriy etish bo'limi;

direktsiya;

buxgalteriya.

31. Markaz direktori universitet Kengashining a'zosi.

VII. Markaz boshqaruvi

32. Markazga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi.

33. Direktor:

markaz faoliyatiga yakkaboshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq markaz nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, markaz mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida markazning hisob raqamini ochadi, markaz mol-mulki va moliyaviy mablag'laridan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha buyruqlar beradi;

barcha xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

markaz bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi hamda xodimlarning xizmat vazifalarini belgilaydi;

o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq markazning faoliyatini tashkil etadi, amaldagi tuzilmasiga vazirlik bilan kelishilgan holda xodimlarning soni doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

vazirlik bilan kelishgan holda bo'lim boshliqlari lavozimlariga nomzodlarni tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi;

xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'radi va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

mehnat, ijro intizomi, mehnatni muhofaza qilish shart-sharoitini ta'minlaydi;

markaz faoliyati bo'yicha vazirlikka muntazam ravishda hisobot berib boradi.

VIII. Markaz faoliyatini moliyalashtirish va uning moddiy-texnik ta'minoti

34. Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilar:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun davlat byudjetidan yillik parametrlar doirasida ajratilgan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnomaviy asosda xizmatlar ko'rsatishdan olingan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va maqsadli badallari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

35. Markaz zarur hollarda va belgilangan tartibda tegishli oliy ta'lim muassasasining, shuningdek boshqa soha korxona va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasidan foydalanishi mumkin.

IX. Yakuniy qoidalar

36. Markaz O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarmaganligi;

ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvallarga muvofiq ta'lim dasturlari hajmini to'liq bajarmaganligi;

ta'lim jarayoni vaqtida tinglovchilar va xodimlarining hayoti va sog'lig'ini xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rmaganligi;

tinglovchilar va markaz xodimlarining huquq va erkinliklarini buzganligi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlar.

37. Markaz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

38. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'kazilgandan so'ng kuchga kiradi.

Markaz Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Markaz direktori



N.G. Karimov